

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG “APRELGACHA ,ALVIDO” SHE’RI TAHLILI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg(1939-2009)- O'zbekiston xalq shoiri,O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,she'rlari bilan butun dunyoda minglab o'quvchilar qalbini zabt eta olgan buyuk shaxs.Shoir o'z she'riyati yo'lida,asosan, insoniy tuyg'ular,jumladan sevgi-muhabbat,iztirob,ayriliq,saqoqat kabi mavzularni keng yoritgan.Uning qalamiga mansub eng ajoyib she'rlardan biri “Aprelgacha,alvido” she'ri hisoblanadi.Asarda muhabbat,kechikish,umid va xotira kabi nozik kechinmalar badiiy tilda tahlil ifodalanadi.She'rda tabiat manzaralari inson ruhiyatini yoritish uchun ishlatiladi,vaqt esa sevgini sinovchi katta kuch ekanligiga ishora beriladi.

Kalit so'zlar: Faynberg,lirika,sevgi,falsafa,ayriliq,aprel,vaqt,umid,xotira,ruhiy kechinma,ramziy obraz.

Aleksandr Arkadevich Faynberg- o'zbek adabiyotida inson qalbi,muhabbat,hayot mohiyatini chuqur his qilgan arboblardan sanaladi.Uning she'rlari zamirida yotgan teran falsafa,samimiy tuyg'ular kitobxon qalbiga taskin,halovat bag'ishlaydi.Shoirning “Aprelgacha,alvido” she'ri muhabbat va ayriliq o'rtasidagi ziddiyatli kechinmalar yorqin ko'rsatib berilgan asarlardan biridir.

Aprelgacha,alvido.

Ochilgan qo'llaring- visol.

She'ning boshlanishidan to oxirigacha muhabbat va ayriliq orasidagi davomiy ziddiyatlar haqida so'z boradi."Aprel" so'zi bu yerda ramziy ma'noni ifodalagan bo'lib, bahorni, yangilanishni bildiradi. Demak, ayriliq ham vaqtinchalik - u yangilanish, umid bilan to'la tarzda talqin etiladi.

Uyum-uyum qor uchqunlari

Sevgiling kaftidan bir umrga

Uchib ketayotir.

Bu yerda tabiat manzarasi bilan inson tuyg'ularining uyg'unlashishi kuzatiladi. Qor uchqunlari sovuq, o'tkinchilik ramzi, "sevgiling kafti" esa issiqlik va mehr timsoli. Shu tarzda mavsumiylik sevgi falsafasiga bog'lanadi: hamma narsa o'tkinchi, lekin tuyg'ular izziz ketmaydi.

Faynberg lirikasida ko'p qo'llaydigan "shahar", "quyosh", "yopinchiq", "yanvar quyoshi" kabi tasvirlar bu yerda ham jonlantirish usulidan foydalanilgan holda inson kechinmalarini aks ettirish uchun ishlatiladi.

"Omon bo'lsin sodiq do'st-shahar.

U bizni boshladi

Sirlarimiz-qalbi."

She'r nafaqat ikki inson o'rtasidagi bog'liqlikni, balki makon va inson o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni ham ifodalaydi.

"Bu ayriliq ishq edi, asli.

Lablarda muzlagan bo'salar yoshi."

Shoir bu yerda ayriliqni ham muhabbat sifatida tasniflaydi. Aslini olganda bu Faynberg lirikasiga xos jihat, ya'ni u muhabbatni qayg'u yoki quvonch deya emas, hayotning o'zi deb tasvirlaydi.

"Bu aprel ikkimiz uchun ham

Qatmaydi,

Qaytmaydi,

Qaytmaydi.

She'r oxirida "qaytmaydi" so'zini taror-takror yozish orqali Faynberg qismatning muqarrar ekanligini, vaqtning ortga qaytmasligini eslatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Faynberg uchun sevgi insonga xos bo'lgan oddiy kechinma emas, insonni poklikka, o'zligiga qaytaruvchi kuchdir. "Aprelgacha, alvido" she'ri esa shoirning ijodi mohiyati bo'lmish ruhiy noziklik, sevgi, umid va vaqt falsafasini o'zida barobar mujassamlashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Файнберг, А.А. Избранные стихотворения. – Тошкент: "Шарк," нашриети, 1999.
2. Абдуллаева М. Совет ва мустакиллик даври узбек поэзиясида фалсафий лирика масалалари. – Тошкент: Фан, 2007.
3. Каримов, У. Хозирги узбек лирикасида бадиий образ ва мотивлар эволюцияси. – ТДЮУ нашриети, 2016.
4. Rustamov, S Modern Uzbek Poetry: Evolution and Symbolism.- Tashkent, 2020.